

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2024 Vol. 4 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 4 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafroz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullaeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev, Sherkuzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Muhayyo Hakimova

O'zbek tilida abstrakt nomlarning semantik tarkibi6

Muqaddas Abdurahmanova

Jahon tilshunosligida omonimiya hodisasining qiyosiy-tarixiy, sistem-
struktur paradigmasida o'rganilishi15

Nodira Alavutdinova

Til o'qitishning didaktik va lingvometodik tamoyillari.....26

Iqbol O'razova

"Xamsa"dagi vaqt semali frazemalar tahlili36

Gavharoy Komilova

Qadriyat va bahoning lingvistik talqini46

Saodat Israilova

Tilshunoslikda rang konseptining tadqiqi54

Sayyora Abdurahmanova

Shevalar korpusi tuzishning lingvistik asoslari va o'zbek shevalari
korpusining ma'lumotlar bazasi63

Shaxlo Baxodirova

Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik birliklar semantikasi71

Surayyo Xakimova

Belgi va simvol: qiyosiy-nazariy tahlil.....83

Mavluda Oripova

Sinestezik metaforalarda sezgilarning voqelanishi95

Content

Linguistics

Mukhayo Khakimova

Semantic composition of abstract names in the uzbek language6

Mukaddas Abdurakhmanova

Study of the phenomenon of homonymy in world linguistics in the comparative-historical, systemic-structural paradigm15

Nodira Aloviddinova

Didactic and linguomethodical principles of language teaching26

Ikbol Urazova

Analysis of time-based phrases in "Khamsa"36

Gavharoy Komilova

Linguistic interpretation of value and excuse46

Saodat Israilova

Research on the concept of color in linguistics54

Sayyora Abdurahmanova

Dialects linguistic basis of Corpus formation and database of Uzbek dialects Corpus63

Shakhlo Bakhodirova

Semantics of archaic units in the works of Abdulla Qadiri71

Surayyo Khakimova

Sign and symbol: A comparative- theoretical analysis83

Mavluda Oripova

Realization of sensations in synesthetic metaphors95

“Xamsa”dagi vaqt semali frazemalar tahlili

Iqbol O'RAZOVA¹

Annotatsiya

“Vaqt” semali birliklar eng qadimgi manbalarda uchrovchi va xalq tafakkurini aks ettiruvchi til xazinasini sanaladi. Bilamizki, vaqt tushunchasi leksemalar, qo'shma so'zlar va frazemalar bilan ifodalanish holatlari mavjud. “Vaqt” semali frazemalar leksemalardan semantik jihatdan boyligi, ta'sirchanligi, ekspressiv ta'sirga egaligi bilan farqlanib turadi. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida qo'llangan “vaqt” semali frazemalar tadqiq qilinadi. Dostonlarda aniqlangan 17 ta frazema uch mikromaydonga: nomlash xarakteridagi frazemalar, qisqa vaqtni ifodalovchi frazemalar, davomiylikni ifodalagan frazemalarga ajratilib tahlilga tortiladi, frazema ifodalagan semantik ma'no semalarga ajratilib o'rganiladi, tahlillar asosida xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlari: frazema, “Xamsa”, leksema, sema, temporal leksema, ma'noviy guruh, “vaqt” semasi, uslubiy ma'no, diaxron aspekt, integral sema.

“Vaqt” tushunchasi inson bu olamni anglay boshlagan davrlardan beri mavjudki, uning tabiiy jarayon ekani, inson omilidan tashqari hodisaligi (*Vaqt –shamol, quvib yetib bo'lmaydi*), vaqtning ayovsiz, berahmli (*Vaqtni qamchilamasang u seni qamchilaydi*), o'tkinchi, oniy (*Umr – oqar suv*) haqidagi qarashlar-u fikrlar insoniyatning uzoq yillik tajribalari va kuzatishlari mahsuli deyishimiz mumkin. Ibtidoiy jamiyatdan taraqqiyot sari odimlagan insoniyat tabiatning abstrak birligi bo'lgan zamonni, davrni, vaqtni anglashga harakat qilgan, uni boshqarishni istagan, natijada bu tushunchalarni nomlashga ehtiyoj tug'ilgan.

Har bir xalq tili tom ma'noda shu xalqning o'ziga xos tafakkuri mahsuli. Xalqning dastlabki tasavvuri keyingi davr vakillarida ham qisman aks etadi, chunki bu tasavvur til bilan, aniqrog'i, til birliklari yordamida o'zlashadi. Shu bois “vaqt” semali birliklar ham har bir til egasining “vaqt” tushunchasiga munosabatini aks ettirishi shubhasizdir.

“Vaqt” semali birliklar qadimgi manbalarda ham faol

¹ O'razova Iqbol Abdikarimovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, PhD.

E-pochta: orazovaiqbola@gmail.com

Iqtibos uchun: O'razova, I.A. “Xamsa”dagi “vaqt” semali frazemalar tahlili. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-4: 36-45.

qoʻllangan boʻlib, muammo qisman B.Bafojev [Бафоев, 1983], B.Abdushukurov [B.Abdushukurov, 2017.], Z.Xolmanova [Холманова, 2009.] kabi olimlar tadqiqotlarida diaxron aspektida, monografik planda M.Hakimova [Ҳакимова, 2004.] tomonidan sinxron aspektida oʻrganilgan. Jumladan, B. Bafojevning qayd qilishicha, Navoiy asarlarida 109 tadan ortiq vaqt maʼnosini ifodalovchi soʻz mavjud [Бафоев, 1983: 152].

Navoiy ijodining gultoji sanalgan “Xamsa” dostonlarida ham “vaqt” semali birliklar faol qoʻllangan boʻlib, vaqt tushunchasi shu davr ruhini, tafakkurini aks ettiruvchi birliklar bilan – aksar holda soʻzlar bilan, baʼzan esa qoʻshma yoki juft soʻzlar, frazemalar va soʻz birikmalar bilan ifodalanganini koʻrish mumkin. Masalan: *Ul **kun** oʻldi bu navʼ ila **oqshom**, Uyqudin topti tabʼlar orom (Ss, 273)*. Ushbu baytda “vaqt” semali ikkita leksema qoʻllangan boʻlib, **kun** leksemasi “bir kecha-kunduz, sutka”ni ifodalayotgan boʻlsa, **oqshom** leksemasi “kunning bir qismi boʻlgan kechki payt” maʼnosini anglatmoqda. Shuningdek, **oqshom** leksemasi kunning yakunlanganiga ham ishora qilmoqda.

Har kun afgʻon-u zor tortar edi, Suv uchun intizor tortar edi (Ss, 200). Ushbu baytda esa “vaqt” semasini ifodalagan birlik qoʻshma soʻz boʻlib, “vaqt” semasini ifodalash bilan birga “davomiylik, uzviylik, takroriylik” maʼnolarini ham anglatishga xizmat qilmoqda.

*Jahongʻa oʻt solib bir **kecha-kunduz**, Debon Farhod ayogʻigʻa qoʻyub yuz (FSh, 500)*. Ushbu baytda **kecha-kunduz** juft soʻzi “bir kunni, yaʼni sutka” maʼnosini ifodalashga xizmat qilgan, shuningdek, uslubiy jihatdan “maʼlum muddat”ni, “chegaralangan vaqt”ni ifodalamoqda.

Quyidagi baytda “vaqt” semasi soʻz birikma shaklidagi **tong otgʻucha** birligi bilan ifodalangan boʻlib, baytda vaqt maʼnosiga qoʻshimcha tarzda, chegaralangan davomiylik maʼnosi ham mavjud: ***Tong otgʻucha** gung-u lol edilar, Sarmasti mayi visol edilar (LM, 251)*.

Vaqt tushunchasini frazemalar bilan ifodalash shu xalq tasavvuri mahsulidir. Har bir millat oʻz kognitiv bilimlari asosida frazemalarni hosil qiladiki, bu birliklar baʼzan xalqlar orasidagi umumiy qarashlarni aks ettirsa, baʼzan milliy oʻziga xoslikni ham ochib beradi. Shu maqsadda Navoiyning “Panj ganji”idagi temporal frazemalar ajratildi va “Xamsa” dostonlarida “vaqt” mazmuniy maydoniga tegishli 17 ta frazema (variantlari bilan birga) aniqlandi:

T/R	Frazemalar	Misollar, asar nomi va betlari
1.	BIR DAMCHA	bir lahza, biroz fursat, bir nafas (ANATIL, I, 295); juda qisqa: <i>Chu tortar oqibat jomi fanoni, Borur dam fahm etar bir damcha oni</i> (FSh, 63).
2.	BOSH QOSHIG'ALI FURSATI YO'Q	vaqti ziq, vaqti tig'iz: <i>Kim bor edi boshima ko'p mehnatim, Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim</i> (HA, 359).
3.	FURSAT G'ANIMAT	ayni vaqti: <i>Soz anlab eting buyon azimat Kim, fursat erur base g'animat.</i> (LM, 234).
4.	FURSAT G'ANIMAT KO'R=	ayni vaqti deb bilmoq: <i>Mihinbonu chu topti bo'yla ruxsat, Chiqib xushdil, g'animat ko'rdi fursat</i> (FSh, 473).
5.	HAY DEGUNCHA / HE DEGUNCHA	birpasda, tez, juda qisqa vaqtda: <i>Kema ahlig'a hay deguncha yetib, Borchag'a har ne ko'ngli istar etib</i> (Ss, 301). <i>Oqibat he deguncha charxi daniy, Tiya go'r ayladi aning vatani</i> (SS, 409).
6.	KO'Z OCHQUNCHA	juda qisqa muddatda, tezda: <i>Yonib gulshan agarchi g'uncha borib, Ko'z ochquncha kelib, yumg'uncha borib</i> (FSh, 22).
7.	KO'Z YUMUB OCHQUNCHA	juda qisqa muddatda, tezda: <i>Tushdek erur dahrda nokom-u kom, Ko'z yumub ochquncha o'tubdur tamom</i> (HA, 344).
8.	KO'Z YUMG'UNCHA	juda qisqa muddatda, tezda: <i>Yonib gulshan agarchi g'uncha borib, Ko'z ochquncha kelib, yumg'uncha borib</i> (FSh, 22).
9.	MIODI NIKOH	nikoh muddati (ANATIL, II, 307): <i>Miodi nikoh topti ta'yin, Ul xaylg'a yonmoq o'ldi oyin</i> (LM, 234).
10.	MURURI AYYOM	kunlarning o'tishi (NAL, 419): <i>Bir-bir berdi mururi ayyom, Tufroqqa alarg'a dog'i orom.</i> (LM, 307).
11.	NAFASE TINMAY	tez, darhol: <i>Barcha bu taraf azimat etsun, Tinmay nafase qoshimg'a yetsun</i> (LM, 324).
12.	NAZARNI YUMUB OCHQUNCHA	juda qisqa muddatda, tezda: <i>Chun ko'ch elidin nazarni yozdim. Ochquncha yumub nazarni ozdim.</i> (LM, 182).
13.	OY ILA YIL	har vaqtdan bir, ora-orada: <i>Necha sening mastlig'ing oy-u yil, Oy ila yil mastlig'ingdin oyil</i> (HA, 275).
14.	OY-U YIL	doim, mudom: <i>Necha sening mastlig'ing oy-u yil, Oy ila yil mastlig'ingdin oyil</i> (HA, 275).
15.	TANDA JON BORICHA	umrim oxirigacha, to o'lguncha: <i>Quli bo'lg'amen tanda jon boricha, Badan ichra jondin nishon boricha</i> (SI, 336).
16.	YAVMUL-HISOB	qiyomat kuni: <i>Keldi beshinchi anga yavmul-hisob, Dema hisob, aytki yavmul-azob</i> (HA, 109).
17.	ZAMON ABLAQI/ ZAMONA ABLAQI	kecha-kunduz (ANATIL, I, 23): <i>Har ablaqki, raftor aro gom olib, Zamon ablaqi ko'z yetarcha qolib</i> (SI, 333). <i>Zamona ablaqi yanglig' xiromi, Yururda sharq to g'arb ikki gomi</i> (FSh, 54).

Ushbu frazemalar semantik jihatdan uch mazmuniy mikromaydonga birlashadi:

1. Vaqtni nomlash xarakteridagi frazemalar.
2. Qisqa vaqtni ifodalovchi frazemalar.
3. Davomiylikni ifodalagan frazemalar

1. Vaqtni nomlash xarakteridagi frazemalarga ma'lum bir vaqtni, jumladan kunni nomlashga xizmat qiluvchi, ot turkumidagi leksema bilan sinonimlik hosil qiluvchi to'rtta frazema kiradi: *miodi nikoh*, *mururi ayyom*, *yavmul-hisob*, *zamon ablaqi*. Ushbu birliklar uchun kategorial sema (“predmetni nomlash”) integral sema sanalsa-da, denotativ sema differensial sema hosil qiladi. Chunonchi, *miodi nikoh* frazemasi “nikoh muddati” (ANATIL, II, 307), “to'y kuni” ma'nosini ifodalaydi: ***Miodi nikoh topti ta'yin, Ul xaylg'a yonmoq o'ldi oyin*** (LM, 234). *Mururi ayyom* frazemasi esa vaqtga xos harakat semasining birinchi planga chiqishi natijasida shakllangan bo'lib, “kunlarning o'tishi” (NAL, 419), ko'chma ma'noda “umrning kechishi” semalarida qo'llangan: *Bir-bir berdi mururi ayyom, Tufroqqa alarg'a dog'i orom*. (LM, 307). “Hayrat ul-abror”da qo'llangan va diniy xarakterga ega *yavmul-hisob* frazemasi “hisob-kitob kuni”, “qiyomat kuni” ma'nolarini anglatadi: *Keldi beshinchi anga yavmul-hisob, Dema hisob, aytki yavmul-azob* (HA, 109). Birlik “Xamsa”ning boshqa dostonlarida uchramaydi. *Zamon ablaqi* frazemasi tarkibidagi arabiy o'zlashma sanalgan *zamon* leksemasi “umumiy vaqtni ifodalovchi abstrak nom” [Hakimova, 2019: 160] bo'lib, vaqt tushunchasini keng ma'noda ifodalaydi va *davr* leksemasi bilan mazmunan sinonimik munosabatni hosil qiladi. *Ablaq* arabiy leksemasi esa “ikki rangli, ola-bula; oq-qora” [ANATIL, I, 23], “ola po'stin”; “junlari ola yo'lli ot, zebra” [NAL, 24] ma'nolarini bildirib, ikki leksemaning metaforik ko'chim asosida frazemalashuvidan “kecha-kunduz” (ANATIL, I, 23), “kun” ma'nosini ifodalovchi frazema shakllangan: *Har ablaqki, raftor aro gom olib, Zamon ablaqi ko'z yetarcha qolib* (SI, 333). *Zamona ablaqi yanglig' xiromi, Yururda sharq to g'arb ikki gomi* (FSh, 54).


Bu frazemalarning har to'rtalasi ham arabiy yoki forsiy leksemalardan tashkil topgani temporal semantikali nomlovchi frazemalarning o'zbek tilida faol emasligini yana bir bor ko'rsatadi. Qiyos sifatida aytish mumkinki, XIV asrning ikkinchi yarmi manbalarida birorta temporal frazema uchramaydi [O'razova, 2023].

2. Qisqa vaqtni ifodalovchi frazemalar. Ushbu frazeosemantik guruhga xos bo'lgan integral sema kategorial sema (“harakat belgisi”) va denotativ sema (“qisqalik, tezlik”) bo'lib, birliklar ushbu ma'noni nimaga asosan ifodalashiga ko'ra

farqlanadi: *bir damcha, hay deguncha / he deguncha, ko'z yumub ochquncha, ko'z yumg'uncha, ko'z ochquncha, nafase tinmay, nazarni yumub ochquncha*. Til egasi bu frazemalarni hosil qilishda o'ziga yaqin bo'lgan tushunchalarga (*dam, nafas, ko'z, nazar*) tayangan va shu yo'l bilan tinglovchiga tushunilishi oson, vaqtni belgilashda qulay bo'lgan frazemalarni hosil qilgan. *Ko'z yumub ochquncha* frazemasini Navoiy asalariga oid lug'atlarda izohlanmagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" va "O'zbek tili frazeologik lug'ati"da *ko'z ochib yumguncha* shaklida berilgan bo'lib, "juda tez; bir lahzada (vaqtga nisbatan)" [O'TIL, 2022, II: 1018], "juda qisqa muddatda, tezda" [O'TFL, 2022: 253] ma'nolarini ifodalashi qayd qilingan. Ta'kidlash lozimki, frazema "Xamsa" dostonlarida ham ayni ma'noda qo'llanadi va frazema semantik jihatdan o'zgarmagan. Ammo birlikning shakliiy tomoni o'zgarishga uchragan va bu o'zgargan shakl xalq tilidan olingan. O'z o'rnida shuni qayd qilish lozimki, ushbu frazemaning *ko'z ochib yumguncha* shakli mazmunan xato qo'llanishdir. Bilamizki, frazema biror voqelikka nisbatan qo'llanadi va qisqa vaqtda yuz bergan hodisani baholashda ishlatiladi. Bu vatqda so'zlovchi ko'z oldida turgan voqelikning ko'zlarini bir yumib qayta ochgunga qadar o'zgarishini ifodalash uchun, bu o'zgarishga ketgan vaqtni chamalash uchun qo'llaydi. Agar so'zlovchi ko'zlarini yumib turgan holatida bo'lganda edi voqelik haqida axborotga ega bo'lmas edi. Shu ma'noda, Navoiy asarlarida qo'llangan shakl to'g'ri deyishimiz mumkin: *Tushdek erur dahrda nokom-u kom, Ko'z yumub ochquncha o'tubdur tamom* (HA, 344). Ushbu frazemaning variantdoshi sanalgan *nazarni yumub ochquncha* birligi ham ayni sememani ifodalab, asarda qisqa vaqtni tamsil qiladi: *Chun ko'ch elidin nazarni yozdim. Ochquncha yumub nazarni ozdim.* (LM, 182). Navoiy frazeologik takrordan qochish maqsadida frazeologik variatsiyani ko'p qo'llagan. Quyida tahlil qilmoqchi bo'lgan birliklar ham ayni fikrning isbotidir. *Yonib gulshan agarchi g'uncha borib, Ko'z ochquncha kelib, yumg'uncha borib* (FSh, 22). *Ko'z yumub ochquncha* frazemasini ushbu baytda komponent bo'linishga uchragan holda ikki mustaqil frazemaning shakllanishiga asos bo'lgan. Baytda *ko'z ochquncha* va *ko'z yumg'uncha* frazemalari "juda qisqa muddatda, tezda" ma'nolarini ifodalab, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning Me'roj kechasidagi sayohati uchun ketgan vaqtni ifodalamoqda: *U yerga g'uncha bo'lib borgan bo'lsa, qaytishda gulshan bo'lib keldi. Ko'z ochib yumguncha borib keldi* [Navoiy, 2019: 133]. Ijodkor maqsadli ravishda bir frazemadan ikkita mustaqil frazemani – *ko'z yumg'uncha* va *ko'z ochquncha* birliklarini shakllantiradi va *ko'z yumg'uncha*

frazemasini *bormoq* fe’li bilan, *ko’z ochquncha* frazemasini *kelmoq* fe’li bilan qo’llash orqali safarga sarf qilingan muddat juda ham qisqa bo’lganini ta’kidlashga, urg’ulashga erishgan.

Asarlarda qo’llangan *nafase tinmay* frazemasini “tez, darhol” ma’nosini anglatadi: *Barcha bu taraf azimat etsun, Tinmay nafase qoshimg’a yetsun* (LM, 324). Frazema harakat tufayli insonda yuz beradigan fiziologik jarayonni nutqqa ko’chirish orqali shakllangan xalq kuzatuv mahsulidir. Bilamizki, faol fiziologik harakat jarayonida nafas olish tezlashadi, qancha tez yursa nafas olish shu darajada ortadi. *Nafase tinmay* frazemasini to’xtamasdan, dam olmasdan yurish orqali ko’zlangan manzilga tez va darhol borish ma’nosini anglatadi. Bu o’rinda metonimik ko’chim orqali “vaqt” semasi hosil qilingan:



Dostonlarda uchrovchi *bir damcha* frazemasini ham ayni usulda hosil qilingan bo’lib, “bir lahza, biroz fursat, bir nafas” (ANATIL, I, 295); “juda qisqa” semalarini ifodalagan: *Chu tortar oqibat jomi fanoni, Borur dam fahm etar bir damcha oni* (FSh, 63).

Asarlarda uchrovchi yana bir faol temporal frazema *hay deguncha / he deguncha* birligi bo’lib, frazema *nutqiy faoliyat – zamon* tushunchalarining aqliy tahlili natijasida hosil qilingan. Til egasi o’z tilidagi eng qisqa va talaffuzi oson birlikni tanlab, uni talaffuz qilishga ketgan vaqtni va kuchni (Frazema uchun yadro vazifasini bajargan *hay / he* leksemasi unli va sirg’aluvchi undoshlardan hosil qilingan bir bo’g’inli leskema va uni talaffuz qilish oson.) ta’kidlash orqali vaqtning eng minimal o’lchovini berishga harakat qiladi. *Hay deguncha / he deguncha* frazemasini birpasda, “tez, juda qisqa vaqtda” semalarini anglatadi: *Kema ahlig’a hay deguncha yetib, Borchag’a har ne ko’ngli istar etib* (Ss, 301). *Poshina raxshlarg’a urdilar, Hay deguncha ani tushurdilar* (Ss, 320). *Oqibat he deguncha charxi daniy, Tiya go’r ayladi aning vatani* (SS, 409). *Qilib “hay” deguncha bu vodini tay, Chu qo’ysang qariliq tariqig’a pay* (SI, 320). Hozirgi o’zbek tilida frazemaning “hash-pash” *deguncha*, “ha-hu” *deguncha* variantlari qo’llanadi (O’TFL, 253).

3. Davomiylilikni ifodalagan frazemalar. Dostonlarda vaqtning davomiyligini, chegaralangan davomiylilik ma’nosini bildiruvchi frazemalar ham mavjud. Shunday birliklarga *tanda jon boricha* frazemasini misol qilishimiz mumkin. Birlik baytda “umrim oxirigacha, to o’lguncha” ma’nolarini ifodalab, implitsit usulda vaqtga nisbatan “davomiylilik”, “uzluksizlik”; shaxsga nisbatan

“sodiqlik” semalarini ham anglatmoqda: *Quli bo'lg'amen tanda jon boricha, Badan ichra jondin nishon boricha* (SI, 336). Ushbu birlik ayni ma'no va shaklda Xorazmiy “Muhabbatnoma”sida ham uchraydi: ***Tirik bo'lung shaho davron borincha, Qulunguzmen tanimda jon borincha* (Xorazmiy, M. 28).**

Quyidagi baytda esa ikki xil ma'noli temporal birlikni qo'llash orqali so'z o'yini hosil qiladi. Garchi frazemalarni hosil qilgan komponentlar bir xil bo'lsa-da, farqli ma'nolarni hosil qilishga erishiladi: *Necha sening mastlig'ing oy-u yil, Oy ila yil mastlig'ingdin oyil* (HA, 275). Birinchi misrada qo'llangan *oy-u yil* birligi “davomiylik” semasini bildirsa, ikkinchi misradagi *oy ila yil* birligi “ba'zan, orasirada” ma'nolarini ifodalab, takrorlanuvchi holatni “vaqt” semasi orqali ifodalashga erishilgan.

Shuningdek, dostonlarda vaqtning o'tkinchiligini ta'kidlash orqali yashirin tarzda uni qadrlash ma'nosini anglatgan *fursat g'animat, fursat g'animat ko'r=* frazemalari ham uchraydi: *Soz anlab eting buyon azimat Kim, fursat erur base g'animat* (LM, 234). *Mihinbonu chu topti bo'yla ruxsat, Chiqib xushdil, g'animat ko'r di fursat* (FSh, 473). “Hayrat ul-abror” dostonida qo'llangan *bosh qoshig'ali fursati yo'q* frazemasida esa metonimik ko'chim orqali hosil qilingan bo'lib, “vaqti ziq, vaqti tig'iz” semalarini ifodalaydi: *Kim bor edi boshima ko'p mehnatim, Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim* (HA, 359). Bu o'rinda kichik bir harakatni bajarishga ham vaqt topa olmayotganini ta'kidlash orqali vaqtning tig'iz ekanligi, kun tartibi zich ekani urg'ulangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, temporal frazemalar “Xamsa” dostonlarida nisbatan faol qo'llangan birliklar bo'lib, katta qismi somatik xarakterga egadir. Frazemalar tarkibida uchrovchi *bosh, ko'z, nafas, nazar, jon* somalari temporal frazemalar uchun semantik yadro vazifasini o'tagan va bu birliklarning barchasi hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanadi. Chunki somatik frazemalar til egasi mulki bo'lib, eng qadimgi frazemalar sanaladi.

Temporal frazemalar vaqtning turli ma'nolarini – davomiyligi, uzliksizligi, qisqaligi, tig'izligi, o'tkinchiligi kabi ma'nolarni angatib, dostonda badiiy emotsionallakni orttirish, ma'noni bo'rttirish, takrorlarning oldini olish maqsadida qo'llangan.

Shartli qisqartmalar:

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати.

NAL – Navoiy asarlari lug'ati

HA – Navoiy A. Hayrat ul-abror
FSh – Navoiy A. Farhod va Shirin
LM – Navoiy A. Layli va Majnun.
SS – Navoiy A. Sab’ayi sayyor
SI – Navoiy A. Saddi Iskandariy
O’TIL – O’zbek tilining izohli lug’ati.
O’TFL – O’zbek tili frazeologik lug’ati.

Adabiyotlar

- Абдушукуров Б. 2017. “Қисаси Рабғузӣй” лексикаси. – Тошкент.
Бафоев Б. 1983. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент.
Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983-1985.
А.И.Фозилов *таҳрири остида. IV томлик. 4 томлик.* – Тошкент.
Навоий А. 2019. *Хамса (Матн): Насрий баён.* – Тошкент.
Муҳаммадиева Д. 2021. “Бобурнома” туркча таржимасидаги паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Монография. – Тошкент.
Холманова З. 2007. “Бобурнома”даги туркий лексемаларнинг ҳозирги ўзбек адабий тилига муносабати // “Илм сарчашмалари”. – Тошкент.
Холманова З. 2009. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи. – Тошкент.
Ҳакимова М. 2004. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона.
Ҳакимова М., 2019. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент.
Hakimova M., (2024). Milliy tafakkurning abstrakt lug’atning shakllanishiga ta’siri. *Til, savodxonlik va STEM ta’limida o’rganish Amerika jurnali*, 2 (5), 447-450.
O’zbek tili frazeologik lug’ati. 2022. – Toshkent.
O’zbek tilining izohli lug’ati. 2022. 6 jildli. – Toshkent.
O’razova I. 2023. XIV asrning II yarmi turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi. – Toshkent.

ANALYSIS OF TIME-SEMED PHRASES IN "KHAMSA"

Iqbol Urazova¹

Abstract

Units with the "time" semantic element are considered a linguistic treasure that is present in the oldest sources and reflects the folk mentality. We know that there are cases when the concept of time is expressed by lexemes, compound words and phrases. Phrases with the "time" semantic element differ from lexemes in their semantic richness, impact, and expressive effect. This article studies the phrases with the "time" semantic element used in Alisher Navoi's work "Khamsa". 17 phrasemes identified in the epics are analyzed and divided into three micro-areas: phrasemes of a naming nature, phrasemes expressing a short time, and phrasemes expressing duration. The semantic meaning expressed by the phraseme is studied and divided into semes, and conclusions are drawn based on the analysis.

Key words: *phraseme, "Khamsa", lexeme, sema, temporal lexeme, semantic group, "time" sema, stylistic meaning, diachronic aspect, integral sema.*

References

- Abdushukurov B. 2017. The lexicon "Qisa Rabguziy". – Tashkent.
Bafoev B. 1983. Lexicon of works of Navoi. – Tashkent.
Explanatory Dictionary of the language of the works of Alisher Navoi. 1983-1985. A.I. Under fozilov edit. IV Vol. 4 vol. – Tashkent.
Navoi A. 2019. Hamsa (text): prose narrative. – Tashkent.
Muhammadiyeva D. 2021. A comparative study of paremias in the Turkish translation of "Boburnoma". Monograph. – Tashkent.
Holmanova Z. 2007. The attitude of the Turkic lexemes in the "Boburnoma" to the current Uzbek literary language / / "volts of Science". – Tashkent.
Holmanova Z. 2009. A study of the lexicon of "Boburnoma". – Tashkent.
Hakimova M. 2004. Time-meaningful vocabulary units in Uzbek and their text-forming capabilities: Philol. ... diss. autoref. – Fergana.
Khakimova M., 2019. Abstract noun semantics in Uzbek: Philol. doc. ... diss. – Tashkent.
Hakimova M. 2024. The influence of national thought on the formation of an

¹ *Urazova Iqbol* – Doctoral student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, PhD.

E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

For reference: Orazova, I.A. Analysis of time-semed phrases in "Khamsa". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2024-4: 36-45.

abstract dictionary. American Journal of language, literacy, and learning in STEM education, 2 (5), 447-450.

Phraseological Dictionary of the Uzbek language. 2022. – Tashkent.

Explanatory Dictionary of the Uzbek language. 2022. 6 volumes. – Tashkent.

Orazova I. 2023. The study of phrasemas in Turkic written sources of the II half of the XIV century. – Tashkent.